

## **ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARGA TIL HODISALARINI O‘RGATISHDA BADIY ASAR MATNIDAN FOYDALANISH.**

*JDPI Ona tili va adabiyot fakulteti 2-kurs 201 -guruh talabasi*

*Bolbekova Zarina Abduhakim qizi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktablardagi ona tili darslarida o‘quvchilarga til hodisalarini o‘rgatishda badiiy asar matnidan foydalanish muammosiga bag‘ishlangan.

Unda ot, sifat so‘z turkumlarining leksik-grammatik xususiyatlarini o‘rganishda o‘quvchilarni badiiy asar matnidan foydalanishga o‘rgatishning o‘ziga xos jihatlari tajribalar asosida yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** til hodisalari, morfologiya, so‘z turkumlari, predmet, ot, sifat, bog‘lanishli nutq, matn, sinonim, antonim.

Darsning aniqligi va ichki mantiqiyliigi, uning maqsadga yo‘altirilganligi juda muhimdir. Yangi material o‘rgatiladigan darsning mazmuni va mantig‘i o‘rganiladigan til hodisasi hamda uning lingvistik mohiyatining bir-biriga ta’sir qilishiga ma’lum darajada sabab bo‘ladi. O‘qituvchi bu o‘zaro bog‘lanishni bilishi va uni o‘quvchilar bilan birga topshiriqlarni bajarish davomida asta ocha borishi muhim. Agar dars grammatik bilimlarni mustahkamlash, orfografik ko‘nikmalarni shakllantirish maqsadini o‘z oldiga qo‘ysa, darsning mantiqiy shartlari asta murakkablashtirib borilgan mashqlar tizimini aks ettiradi. Bolalar biror imlo qoidasini yaxshilab bilib, o‘rganib olishlari uchun biri-kki mashq jamoaviy ravishda bajariladi.

O‘quvchilar tajribasi oshgach, mashqni mustaqil ishlaydilar.«Ot» mavzusini o‘rganish jarayonida uning barcha xususiyatlarini qamrab oladigan matnlardan unumli foydalanish lozim. Bunda soddadan murakkab tomon borish tamoyiliga amal qilish talab etiladi. O‘quvchilarga otning so‘rog‘i asosida asar matnidagi otlarni topish topshirig‘i beriladi. Darsda bajarilgan mashqlar o‘rtasidagi bog‘lanishni shakllantiradigan ko‘nikmaning xususiyati ham sabab bo‘ladi. O‘quv materialining

mavzu va darsning maqsadiga mos bo'lishi uning maqsadga yo'naltirilishini ta'minlaydi. Darsda foydalaniladigan barcha o'quv materiallari (shu jumladan, til dalillarini kuzatish, imlo va nutqqa oid mashqlarni bajarish uchun tanlanadigan materiallar ham) darsning maqsadiga mos bo'lishi zarur.

O'quvchilarda «sifat» tushunchasini shakllantirish o'quvchilarning «predmet belgisi» degan umumlashtirilgan kategoriyani o'zlashtirish darajasiga bevosita bog'liq. SHu maqsadda rang, maza, shakl-hajm, xil-xususiyatni bildiradigan so'zlar aniqlanadi va shu so'zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning lug'aviy ma'nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi. Sifatni o'rganishda og'zaki va yozma ijodiy ishlarga katta o'rin beriladi. Sifatning nutqimizdagi fikrni aniq va tushunarli ifodalashdagi rolini puxta o'zlashtirishga erishish uchun sinonim va antonim sifatlar ustida ishlash, o'qish darslarida esa sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq.

Ona tili darslarida nazariy ma'lumotlarga asoslanib, matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo'yish, gapda sifat bog'langan otni aniqlab yozish, otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Bunda badiiy asar materiallaridan foydalanish yaxshi samara beradi. Ona tili darslarida bog'lanishli nutqni o'stirish o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi, ular tafakkurini kengaytiradi. Shuning uchun o'qituvchi o'tilgan mavzu asosida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishga alohida e'tibor berishi lozim. Bunda o'quvchilarga til hodisalarini haqidagi bilimlarni tarkib toptirishda integratsiyalashgan dars turidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili darslarida o'quvchilarga til hodisalarini o'rgatishda badiiy asar matnidan foydalanish ularning matn haqida tushunchalarini kengaytiradi, bog'lanishli nutqining rivojlanishiga zamin yaratadi. Shunday qilib, ona tili o'quv predmetini o'rgatishda o'quvchilarga so'z turkumlari haqida axborot berish, ularning bilim, ko'nikma, malakalarini shakllantirish salmoqli ahamiyatga ega. So'z turkumlarini o'rganish jarayonida o'quvchilarning lug'ati boyitiladi, adabiy orfoepik talaffuz me'yorlari egallanadi, ularda imloviy savodxonlik shakllantiriladi.

O'quvchilarda og'zaki va yozma bog'lanishli nutq o'stiriladi, o'zgalar fikrini anglay olish, o'qiganlarini o'zlashtirish, o'z fikrlarini boshqalarga yetkaza olish imkoniyati yaratiladi. O'quvchilarga so'z turkumlarini o'rgatishning amaliy ahamiyatini nazarda tutadigan bo'lsak, uni o'rgatishning samarador metod va vositalarini ishlab chiqish zarurligini anglash qiyin emas. Jumladan, ona tili darslarida o'quvchilarni mavzuni o'rganishga doir badiiy asar materiallaridan foydalanishga o'rgatish ham o'zining samarali natijalarini beradi.

#### Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qosimova K. va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. - T.: «Noshir», 2009. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www.natlib.uz](http://www.natlib.uz)